

O'RTA OSIYODA JADIDCHILIK HARAKATI: ISLOHOT, YANGILANISH VA YUKSALISH MODELI SIFATIDA

E.Kurbanov.

GDPI s.f.f.d (PhD), dotsent v.b.

M.H.Gofurova

GDPI, 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Temur davrida markazlashgan davlatning inqirozi, davlatning uzoq vaqt davomida konservativ boshqaruvda qolishi natijasida yuzaga kelgan salbiy holatlar tahlil qilinadi. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati, uning ta'lim, madaniyat, siyosat va jamiyat hayotidagi islohotlari keng yoritilgan. Jadidchilar ilm-ma'rifat va zamonaviy ta'lim orqali jamiyatni yangilashga intilganlar. Harakatning Turkistondagi rivoji, Rossiya mustamlakachiligiga qarshi kurash va uning madaniy, siyosiy, ijtimoiy ta'siri tahlil qilinadi. Sovet davridagi jadidchilarning ta'qiblari va jadidchilik harakatining keyingi avlodlarga ta'siri ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, islohotlar, O'rta Osiyo, usuli jadid, milliy uyg'onish, Rossiya imperiyasi, Sovet davri, madaniy yangilanish, zamonaviylik, modernizatsiya.

Temuriylar davridagi o'zaro qarama – qarshilik, xiyonat va saroydagi fitna oxir oqibat Amir Temur tomonidan bir necha o'n yillar davomida qurilgan markazlashgan davlatni degradatsiya (*pasayish, asta sekin yomonlashish*) holatiga uchradi. Buni oqibatlari O'rta Osiyo davlatlarida uzoq yillar davomida sezildi. Xattoki, davlat boshqaruvi deyarli uch asrdan oshiq vaqt davomida konservativ (yopiq xarakter) kayfiyatda barpo etildi. Natijada ilm-fan sohada ko'zga ko'rinarli yutuqlar va o'zgarishlar sezilmadi. Jamiyatda mavjud siyosat ilm-fan, ishlab chiqarishga keskin ta'sir etishi oqibatida biror olimu-fuzalo, allomalar yetishib chiqmadi. Mavjud tizimning salbiy oqibatlari jinsiy tafovutni, ya'ni ijtimoiy ajratishlarni xosil qildi. Jamiyatda ayol mavqei pastlandi. Xonliklararo olib borilgan o'zaro diplomatik munosabatlarning pastligi, bir biriga bo'lgan nafratning ortib borishi o'zaro bir bo'lgan elatni ajratishga sabab bo'ldi. Xalq dardi unut bo'ldi. Bu jaxolat mustamlakachi davlatlarga qo'l keldi.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining turkiy xalqlari musulmonlari orasida paydo bo'lgan Jadidchilik harakati islohotchi va modernizatsiya harakati bo'lib, Jadidchilik (arabcha "jadid" dan - yangi) ta'lim, madaniyat va ijtimoiy hayotni isloh qilish orqali an'anaviy Islom jamiyatini yangilashni maqsad qilgan. Jadidchilar musulmonlar jamoasini modernizatsiya qilishga, uni zamonaviy dunyoga qo'shishga va madaniy va ta'lim darajasini oshirishga intildilar.

Harakatning kelib chiqishida mustamlakachilik davrida xalqning og'ir iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli, ilm-ma'rifatning sustligi, islom diniy ta'limotining to'g'ri talqin qilinmasligi kabi omillar muhim rol o'ynagan. Bu harakatning asoschilari "jadidlar" deb atalgan va ular yangi usul (usuli jadid) asosida ta'lim beruvchi maktablar ochish, matbuotni rivojlantirish va ijtimoiy ongini oshirish yo'lida kurashganlar. Jadidchilikning kelib chiqishiga tashqi va ichki omillar sabab bo'lgan. **Tashqi omillarga** G'arb mamlakatlaridagi ma'rifatparvarlik harakatlari, Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati va G'arb texnologiyalarining taraqqiyoti ta'sir ko'rsatgan. **Ichki omillar** esa O'rta Osiyoning iqtisodiy qo'loqligi, ta'lim tizimining eskirganligi, savodsizlik darajasi yuqoriligi hamda mahalliy xalqning ijtimoiy ahvolining yomonligi edi. Jadidlar madaniy islohotlar orqali bu muammolarni hal qilishga urinib, ularning bosh maqsadi xalqqa ilm-ma'rifat tarqatish edi. Asosiy qadriyatlaridan biri diniy bilimlarni modernizatsiya qilish va ulardan ilmiy yondashuvda foydalanish bo'ldi. Usuli jadid (yangi usul) ta'lim tizimi orqali zamonaviy bilimlarni keng tarqatish, yangicha fikrlashni rivojlantirish jadidlarning bosh maqsadi edi. [1: 45–67]

Jadidchilik namoyondalarining asosiy g'oya va maqsadlari Jadidlar harakati ta'lim, madaniyat va siyosiy islohotlarni amalga oshirishni maqsad qilib qo'ygan. Asosiy g'oya – xalqni savodsizlikdan qutqarish va ilm-ma'rifat orqali mustamlakachilikka qarshi kurash olib borish edi. Shu maqsadda usuli jadid maktablari tashkil etilib, bu maktablarda diniy ta'lim bilan bir qatorda matematika, geografiya, tarix kabi zamonaviy fanlar ham o'qitilgan. Jadidlarning maqsadlari faqat ta'lim bilan cheklanmay, ijtimoiy-siyosiy hayotga ham ta'sir o'tkazishni o'z ichiga olgan. Ular o'z davrida matbuotni rivojlantirish, milliy uyg'onishni kuchaytirish va mustaqillikka erishish uchun faoliyat olib borgan [2: 89–120]. Bu harakatning yetakchilari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ziyolilar bo'lib, ular yangi usuldagi maktablar, nashriyotlar va teatr orqali xalqni tarbiyalashga intildilar. Ular, shuningdek, dunyoviy fanlarni o'rgatishni maqsad qilgan [3:22].

Jadidlarning muhim vositasi matbuot edi. Ular o'z g'oyalarini targ'ib qilgan, an'anaviy asoslarni tanqid qilgan va islohotlarni taklif qilgan gazetalar, jurnallar va kitoblar nashr etishgan. Ushbu nashrlar yangi qarashlarning tarqalishiga va milliy o'zlikni anglashning shakllanishiga yordam berdi. Jadidistlar ayollarning jamiyatdagi mavqeini o'zgartirish, ularning ta'lim va ijtimoiy hayotdagi ishtiroki va musulmon aholisining barcha qatlamlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni yaxshilashni qo'llab-quvvatladilar. Shuningdek, ular yangi texnologiyalar va ilmiy yutuqlarni o'zlashtirish zarurligini targ'ib qildilar.

Jadidchilikning Turkistonda rivojlanishi Turkistonda jadidchilik XIX asrning oxirlarida paydo bo'lib, 1905 yilgi Rossiya inqilobi va uning ta'sirida kuchaygan.

1908-yilgacha Turkistonda bir nechta usuli jadid maktablari ochilib, ko'plab yangi usuldagi maktablar va madaniy markazlar tashkil etilgan. 1905–1917-yillarda jadidlar gazeta va jurnallar nashr qilib, ularning orqali o'z g'oyalarini xalq orasida tarqatganlar. Turkiston jadidlari Turkistonda milliy uyg'onishni jadallashtirishda va Rossiya imperiyasidan mustaqillik olishda katta rol o'ynagan. Jadidlarning Turkistonda rivojlanishiga oid asosiy voqealar 1917-yilgi fevral inqilobidan keyin amalga oshgan. Ular Turkiston muxtoriyati uchun kurashgan, ammo 1918-yilning boshida bu kurashning inqirozi sodir bo'ldi. [4:101–118]

Jadidchilikning davlat va jamiyatga siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri Jadidlarning faoliyati davlat va jamiyatga katta ta'sir ko'rsatdi. Ular milliy g'urur va ongni yuksaltirdi, savodxonlik darajasini oshirdi, madaniy uyg'onish harakatlarini amalga oshirdi. Ularning ta'siri ostida davlat siyosati va iqtisodiy hayotda modernizatsiya jarayonlari boshlandi. Biroq Sovetlar davrida bu harakat repressiyaga uchradi, biroq milliy uyg'onish va taraqqiyotning asosi sifatida o'z ta'sirini saqlab qoldi [5:76]

Jadidchilik harakati siyosiy maydonda Rossiya mustamlakachiligiga qarshi milliy uyg'onishni kuchaytirib, siyosiy mustaqillikka erishish uchun kuchli harakatga aylangan. Ularning asosiy ta'sirlaridan biri ijtimoiy adolat va milliy birlik g'oyalarini keng targ'ib qilish edi. Iqtisodiy jihatdan, jadidlar zamonaviy texnologiyalar va bozor iqtisodiyoti bilan tanishib, bu usullarni O'rta Osiyoda tatbiq qilishga harakat qilishgan. Ijtimoiy ta'sir jihatidan, jadidlar xalqni ma'rifatlantirish orqali yangi ijtimoiy qatlam – ziyolilarni shakllantirishga katta hissa qo'shgan. Bu yangi ziyolilar millat taraqqiyoti uchun xizmat qilishga intilgan [6.63–85]

Jadidchilik Rossiya imperiyasining musulmon xalqlari orasida milliy o'ziga xoslik va madaniyatning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Harakat dunyoviy musulmon ziyolilari va faollarining shakllanishiga asos yaratdi, ular keyinchalik imperiya parchalanishi va keyingi inqilobiy voqealar davrida o'z xalqlarining mustaqilligi va avtonomiyasi uchun kurashda muhim rol o'ynadi. Jadidizm harakati o'zining mo'tadilligi, bag'rikengligi va ichki ma'naviy rivojlanishga e'tibor qaratishi bilan ko'plab izdoshlarni jalb qildi. U aholining o'rta va quyi qatlamlari orasida faol tarqalib, adolat va axloq asosida jamiyat yaratishni maqsad qilgan. 1920-yillarda sovet hokimiyati o'rnatilganidan so'ng, jadidchilar ta'qiblarga duch kelishdi. Ularning aksariyati sotsialistik mafkurani o'rnatish va jamiyatni dunyoviy lashtirishga qaratilgan sovet siyosati doirasida qatag'on qilindi va ularning g'oyalari bostirildi. Biroq, uning g'oyalari tirik qoldi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Jadidchilik harakati O'rta Osiyoning milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik davrida muhim rol o'ynadi. Jadidlar madaniy, ijtimoiy va siyosiy hayotda islohotlarni amalga oshirishga intilib, xalqning

savodxonligi va ijtimoiy ongini oshirishga katta hissa qo'shganlar. Ushbu harakat nafaqat o'z zamonida, balki keyingi avlodlar uchun ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Abdullayev.A. O'zbekiston jadidchilik harakati tarixi. - Toshkent: Fan, 1995.
2. Nazarov, B. O'zbekiston jadidlari va ularning faoliyati. - Toshkent: O'zbekiston, 2001.
3. Fitrat A. Milliy uyg'onish. – Toshkent: 1914.
4. Kari-Niyazov. Turkiston jadidlari tarixi va ularning siyosiy kurashi. - Toshkent: Ijtimoiy fanlar akademiyasi nashriyoti, 1988,
5. Abdulla Avloniy, "Milliy uyg'onish va tarbiya", Toshkent, 1916, 76-bet.
6. Bekmurodov, A. Jadidchilik: XIX asr oxiri - XX asr boshida Markaziy Osiyo islohotlari. - Toshkent: Universitet nashriyoti, 2005.